Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	



BUXORO VILOYATIDA AGROKLASTER TIZIMI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI

Ro'ziyev Sobirjon Samatovich

Buxoro davlat universiteti, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o'qituvchisi, i.f.n.
Email: s.s.ruziyev@buxdu.uz
ORCID: 0000-0003-4375-1421
Scopus ID: 57221667058

Boltayeva Shaxnoz Bebudovna

Buxoro davlat universiteti, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası katta o'qituvchisi, i.f.n.
ORCID: 0009-0003-3481-3456
Email: sh.b.boltayeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatidagi biologik xilma-xillik holati, unga tahdid soluvchi omillar hamda mavjud resurslarni iqtisodiy baholash asosida muhofaza qilish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi va qurg'oqchilik kabi omillarning ekotizimlarga ta'siri, shuningdek, "Jayron" pitomnigi, Qizilqum qo'riqxonasi va Karakul ko'li kabi obyektlarning iqtisodiy salohiyati ko'rib chiqiladi. Muallif ekologik barqarorlikni ta'minlashda ekoturizm, mahalliy boshqaruv va innovatsion suv resurslarini boshqarish usullarini muhim strategik vosita sifatida ilgari suradi.

Kalit so'zlar: biologik xilma-xillik, suv tanqisligi, ekoturizm, qurg'oqchilik, ekologik barqarorlik, Buxoro, "Mirob" tizimi.

Abstract: This article explores the current state of biodiversity in the Bukhara region and analyzes the threats posed by water scarcity, climate change, and drought. The study provides an economic assessment of conservation efforts and highlights the role of ecotourism, protected areas, and traditional water management systems in maintaining ecological balance. Key examples such as the "Jayron" breeding center, Karakul Lake, and the Kyzylkum Nature Reserve are examined for their strategic potential in sustainable development.

Key words: biodiversity, water scarcity, ecotourism, drought, ecological sustainability, Bukhara, Mirob system.

Аннотация: В статье анализируется текущее состояние биологического разнообразия в Бухарской области, а также влияние на него таких факторов, как дефицит воды, изменение климата и засухи. Особое внимание уделяется экономической оценке природных ресурсов региона и возможностям устойчивого использования через развитие экотуризма и возобновляемого водного управления. В качестве примеров рассматриваются питомник "Джейрон", Каракульское озеро и заповедник Кызылкум. Предложены меры по интеграции местных знаний с современными технологиями для повышения экологической устойчивости.

Ключевые слова: биологическое разнообразие, водный дефицит, экотуризм, климатические риски, устойчивое развитие, Бухара, система "Мироб".

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda agrar sohani modernizatsiya qilish, uning eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va tarmoq ichidagi integratsiyani kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi muhim yo'nalishlardan biri agroklastler tizimini shakllantirish va rivojlantirish hisoblanadi. Agroklastlerlar – bu fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari, logistika markazlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va eksport bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar o'rtasidagi uzviy iqtisodiy va texnologik hamkorlik asosida tashkil etiladigan zamonaviy ishlab chiqarish tizimidir. Ushbu yondashuv O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-oktabrdagi PQ-4879-son qarorida ham o'z aksini topgan bo'lib, unda qishloq xo'jaligi tarmoqlarida klaster usulini keng joriy qilish orqali ularning samaradorligini oshirish vazifasi belgilangan.

Buxoro viloyati – yirik yer maydonlariga, iqlim va suv resurslari jihatidan nisbatan qulay sharoitga ega bo'lgan hududlardan biri bo'lib, bu yerda paxtachilik, bog'dorchilik, tokchilik, sabzavotchilik va chorvachilik sohalari salohiyatli rivojlanmoqda. Shu bois viloyatda agroklastler tizimining joriy etilishi nafaqat tarmoqning



iqtisodiy samaradorligini oshirish, balki bandlik darajasini ko'tarish, infratuzilmani yaxshilash va eksport ko'lamini kengaytirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi. Hozirda viloyatning bir qator tumanlarida paxta-to'qimachilik, g'alla, sabzavot-meva hamda chorvachilik klasterlari shakllangan bo'lib, ularning har biri turli darajadagi iqtisodiy natijalarni namoyon qilmoqda.

Ushbu maqolada Buxoro viloyatida agroklaster tizimining joriy etilishi va faoliyati, uning tarmoq ichidagi kooperatsiya darajasi, mehnat unumdorligiga ta'siri, mahsulotlar tannarxining pasayishi, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lamini va aholi bandligiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot asosida agroklaster tizimi samaradorligini oshirish yo'nalishlari aniqlanib, iqtisodiy natijalarning statistik tahlili orqali klaster modelining mahalliy sharoitda qanday imkoniyatlar yaratayotgani asoslanadi. Mazkur tahlillar klasterlashgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tizimli ravishda baholash va uning uzoq muddatli istiqbolini belgilashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agroklasterlar konsepsiyasi va ularning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish bugungi global iqtisodiy muhitda tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Bu yo'nalishda M. Porterning "klaster" nazariyasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u hududiy ishlab chiqarish guruhlarining raqobatbardoshligini oshirishda klasterlashuvning muhimligini asoslab bergan. Unga ko'ra, klasterlar nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, balki innovatsion faoliyat va texnologik taraqqiyot uchun muhit yaratadi.

O'zbekistonda agroklasterlar masalasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, N. Ibragimov va S. Shodmonovning O'zbekiston iqtisodiyotida klaster modelini joriy etish tajribasiga bag'ishlangan ishlarida klasterlarning vertikal integratsiyasi, bozor infratuzilmasi va davlat qo'llab-quvvatlovi omillari muhimligini ta'kidlaydi. Ularning tahliliga ko'ra, samarali agroklasterlar mahsulot tannarxini kamaytirish, yetkazib berish zanjirini soddalashtirish va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni kuchaytirish imkonini beradi.

Shuningdek, A. Yusupov o'z izlanishlarida agroklasterlar faoliyatida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi kooperatsiyaning institutsional asoslarini o'rganib, bu modelda yer resurslaridan oqilona foydalanish, agrotekhnologiyalarni joriy etish va marketing tizimining samarali tashkil etilishi hal qiluvchi omillar ekanini ko'rsatgan. Uning fikricha, ayniqsa paxta-to'qimachilik va chorvachilik yo'nalishlarida klaster yondashuvi kichik fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xalqaro tajriba ham agroklasterlarning iqtisodiy ustunliklarini tasdiqlaydi. Masalan, FAO ekspertlari tomonidan olib borilgan tahlillarda Turkiya, Hindiston va Argentina kabi davlatlarda klaster asosida tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tizimlari mahsulot sifatining yaxshilanishi, eksport ko'lamining ortishi va aholi bandligining barqaror oshishiga olib kelgani qayd etilgan. Bu jihatlar Buxoro viloyatida agroklasterlarni rivojlantirishda xalqaro tajribani lokal sharoitlarga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ekspertlari tomonidan 2021-yilda tayyorlangan "Qishloq xo'jaligida klaster tizimini takomillashtirish yo'llari" mavzusidagi tahliliy hisobotda esa klasterlarning moliyalashtirish mexanizmlari, qo'shilgan qiymat zanjiridagi roli va eksport salohiyatini kuchaytirishdagi ahamiyati atroflicha tahlil qilingan. Unda Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan paxta-to'qimachilik klasterlari misolida yirik kooperatsion strukturalarning regional iqtisodiyotga ta'siri ko'rsatib berilgan.

Shuningdek, I. Djurayevning hududiy rivojlanish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida agroklasterlar orqali agrar tarmoqlarda mehnat samaradorligi va ijtimoiy barqarorlikni oshirishga oid g'oyalar ilgari surilgan. U viloyatlar kesimida agroklaster samaradorligini baholash uchun kompleks indikatorlar tizimini taklif etgan bo'lib, bu metodologiya Buxoro misolida ham tadbiq qilinishi mumkin.

Yuqoridagi adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, agroklasterlar iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim instrumenti bo'lib, ularni muvaffaqiyatli joriy qilish va rivojlantirish uchun institutsional muhit, infratuzilma, resurslar va bilimga asoslangan boshqaruv tizimi zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda asosiy ma'lumotlar Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan agroklasterlar haqidagi mahalliy davlat statistikasi, hududiy hokimlik hisobotlari va mavjud ilmiy nashrlar orqali yig'ildi. Tahlil uchun induktiv usul, solishtirma tahlil va holatli tadqiqot metodlari qo'llanildi, mavjud klasterlarning iqtisodiy samaradorligi sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro viloyatida agroklaster tizimini joriy etish va rivojlantirish jarayoni respublika miqyosida amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu viloyatda bir qator



klasterlar tashkil etilgan bo'lib, ular asosan paxta-to'qimachilik, sabzavot-poliz, bog'dorchilik va chorvachilik yo'nalishlarida faoliyat yuritmoqda. Viloyatning iqlimiy va tabiiy resurslari, shuningdek, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan aholi salohiyati agroklasterlar faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Biroq mavjud holatning tahlili shuni ko'rsatadiki, agroklaster tizimi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, ayrim hududlarda faqat nomigagina faoliyat yuritayotgan klasterlar mavjud (1-rasm).



1-rasm. Agroklasterlar faoliyatini tashkil etish tamoyillari¹

Yuqoridagi 1-rasmda agroklasterlar faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillari grafik shaklida tasvirlangan. Ular o'zaro bog'liq va aylana shaklida joylashtirilgani bu tamoyillar bir-birini to'ldiruvchi va uzluksiz tizimni tashkil etishini anglatadi. Diagrammaning markazida turgan "Geografik" tamoyil hududiy yaqinlik va resurslardan samarali foydalanishni ko'zda tutadi. Bu klaster ishtirokchilarining joylashuvi, infratuzilma va transport imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq. "Innovatsion" va "Ixtiyoriylik" tamoyillari esa klasterga a'zo bo'lish erkinligi va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. "Yadro" klaster esa asosiy ishlab chiqaruvchi yoki qayta ishlovchi tashkilot atrofida boshqa subyektlarning shakllanishini bildiradi. "Davlat-xususiy sheriklik" mexanizmi resurslar va tashabbuslarni birlashtirib, samaradorlikni oshiradi. "Iqtisodiy manfaatlar ustuvorligi" esa barcha ishtirokchilar uchun foyda mexanizmini ta'minlashga qaratilgan. Oxirida "Ijtimoiy-texnologik klaster" tamoyili esa ijtimoiy barqarorlik va texnologik taraqqiyotga qaratilgan integratsiyani ifodalaydi. Bu tamoyillar birgalikda agroklaster faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Viloyatda mavjud agroklasterlar faoliyatining tahlili ularning ishlab chiqarishdan tortib qayta ishlashgacha bo'lgan bosqichlarda zanjirli integratsiya darajasining pastligini ko'rsatmoqda. Ko'plab hollarda fermer xo'jaliklari klaster tarkibiga kirgan bo'lsa-da, ular faoliyatining moliyalashtirilishi, texnik va texnologik ta'minoti markazlashmagan. Bu esa mahsulot sifati, hosildorlik va eksport salohiyatiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, logistika infratuzilmasining yetarli emasligi, sovetkichlar va omborlarning taqchilligi, transport aloqalarining samarasizligi ham ishlab chiqarilgan mahsulotni saqlash va yetkazib berish jarayonida katta yo'qotishlarga olib kelmoqda (1-jadval).

1-jadval. Buxoro viloyati agroklasterlari bo'yicha ko'rsatkichlar².

Ko'rsatkich	Qiymat
Qishloq xo'jaligi yerining umumiy maydoni (gektar)	279913.0
Umumiy ekin maydoni (gektar)	204731.0
Agroklasterlar soni (jami)	23.0
Paxta-to'qimachilik klasterlari (soni)	8.0

1 Muallif ishlanmasi

2 <https://www.agro.uz/svodnaya-spravka-po-buharskoy-oblasti/>



G'allachilik klasterlari (soni)	8.0
Meva-sabzavotchilik klasterlari (soni)	5.0
Dorivor o'simliklar klasterlari (soni)	2.0
Klasterlarga ajratilgan umumiy maydon (gektar)	104206.0
Bevosita klasterga ajratilgan yer (gektar)	11992.0
Fermerlar egaligidagi yer (gektar)	92124.0
Agrologistika markazlari (soni)	1.0
Fermer xo'jaliklari (jami)	4883.0
Paxtachilik-g'allachilik fermer xo'jaliklari	2764.0
Bog'dorchilik-uzumchilik fermer xo'jaliklari	948.0
Bog'dorchilik va polizchilik fermer xo'jaliklari	143.0
Bog'dorchilik-g'allachilik fermer xo'jaliklari	14.0
Chorvachilik fermer xo'jaliklari	974.0
Boshqa yo'nalishdagi fermer xo'jaliklari	105.0
Issiqxonalar uchun ajratilgan maydon (gektar)	780.1
Issiqxonalar soni (fermer xo'jaliklari)	438.0
Intensiv bog'lar uchun ajratilgan maydon (gektar)	2772.0
Intensiv bog'lar soni (fermer xo'jaliklari)	196.0

Viloyatdagi umumiy qishloq xo'jaligi yer maydoni 279 913 gektarni tashkil etib, uning 204 731 gektari ekin maydoniga to'g'ri keladi, ya'ni yer resurslarining taxminan 73 foizi faol qishloq xo'jaligida ishlatilmoqda. Bu yerlarning muhim qismini agroklastlar egallagan bo'lib, ularga jami 104 206 gektar ajratilgan. Shundan faqat 11 992 gektari bevosita klaster egaligida, qolgan 92 124 gektar 3 177 ta fermer xo'jaligi orqali ishlatiladi. Bu esa ko'pchilik klasterlar kooperatsiya shaklida tashkil etilganini bildiradi.

Viloyatda jami 23 ta agroklastlar faoliyat yuritmoqda. Ulardan eng ko'pligi paxta-to'qimachilik va g'allachilik yo'nalishlariga to'g'ri keladi (har biridan 8 tadan), bu esa Buxorodagi an'anaviy agrar struktura saqlanib qolganini ko'rsatadi. Meva-sabzavotchilik (5 ta) va dorivor o'simliklar (2 ta) esa nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, diversifikatsiyaning boshlanayotganini bildiradi. Dorivor o'simliklar bo'yicha ishlab chiqarish quvvati nihoyatda past – atigi 2 tonna. Bu soha hali rivojlanish bosqichida ekani aniq ko'rinadi.

Viloyatda 4 883 ta fermer xo'jaligi ro'yxatga olingan bo'lib, ularning yarmidan ko'pi paxtachilik-g'allachilik yo'nalishida ixtisoslashgan. Bu klasterlashuvga asosiy zamin bo'layotgan sohalar shu ikki yo'nalish ekanini ko'rsatadi. Qolganlari bog'dorchilik, chorvachilik va boshqa tarmoqlarda faoliyat yuritadi, ammo bu tarmoqlarda kooperatsiya va klasterlashuv darajasi past.

Issiqxona xo'jaligi 438 ta fermer tomonidan atigi 780,1 gektarda olib borilmoqda, bu issiqxona klasterlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 196 ta fermer xo'jaligi tomonidan 2 772 gektar maydonda intensiv bog'lar tashkil etilgan bo'lib, bu viloyatda samaradorlikka asoslangan intensiv texnologiyalar asta-sekin joriy qilinayotganini bildiradi.

Mahsulotlarni qayta ishlash tizimi ham to'liq yo'lga qo'yilmagan. Aksariyat klasterlarda faqat birlamchi ishlov berish bosqichigacha bo'lgan imkoniyatlar mavjud, chuqur qayta ishlash, standartlashtirish, qadoqlash va eksportga tayyorlash bo'yicha jarayonlar esa individual tashabbuslar asosida amalga oshirilmoqda. Bu holat, ayniqsa, global bozor talablariga mos raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni qiyinlashtirmoqda. Shu sababli, klasterlar tarkibiga texnologik parklar, sinov laboratoriyalari va marketing markazlarini jalb qilish dolzarb masalaga aylangan.

Agroklastarlarda bilimli va malakali kadrlar yetishmasligi muhim muammolardan biridir. Hozirgi kunda ko'plab fermer va klaster menejerlari agroteknologiyalar, agrotehnika, ekin navlarini tanlash, hosildorlikni oshirish usullari bo'yicha zamonaviy bilim va tajribaga ega emas. Bu esa klasterlarda resurslardan foydalanish samaradorligini pasaytiradi. Shu jihatdan, Buxoro viloyatida agronomlar, agromenejerlar, veterinariya mutaxassislari va boshqa zarur kadrlarga ehtiyoj yuqorilgicha qolmoqda. Mazkur ehtiyojni qondirish uchun agroklastlar bilan hamkorlik qiluvchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasida tizimli aloqalarni kuchaytirish, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini joriy etish zarur.

Moliyaviy barqarorlik va investitsiyalar hajmi ham klasterlarning faoliyatida muhim o'rin tutadi. Hozirda ayrim agroklastlar yetarli miqdorda kredit resurslariga ega bo'lmagani sababli texnika, urug'lik, o'g'it va zararkunandalarga qarshi vositalar bilan ta'minotda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shu bilan birga, mavjud kreditlash mexanizmlari ko'p hollarda samarasiz bo'lib, fermerlar uchun yuqori foiz stavkalari va murakkab



byurokratik tartiblar bilan ajralib turadi. Ushbu muammoni hal etish uchun davlat tomonidan agroklastlar uchun imtiyozli kredit liniyalari ajratish, garovsiz yoki yengillashtirilgan shartlarda moliyaviy vositalarga kirishni ta'minlash, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda investitsion loyihalarni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim.

Yuqoridagi muammolarga qaramay, Buxoro viloyatida agroklastlar tizimini rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Ularning samarali faoliyat yuritishi uchun, eng avvalo, klaster ichida ishtirokchilarning huquqiy maqomini aniq belgilab berish, ularning o'zaro mas'uliyat va majburiyatlarini qonuniy asosda mustahkamlash, kooperatsiya madaniyatini rivojlantirish zarur. Fermer xo'jaliklari, qayta ishlovchilar, logistika xizmatlari va savdo vakillari o'rtasidagi koordinatsiyani kuchaytirish orqali umumiy iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirish va mahsulot zanjirining har bir bo'g'inida barqarorlikka erishish mumkin.

Bundan tashqari, agroklastlar faoliyatini monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash uchun aniq indikatorlar tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu indikatorlar asosida resurslardan foydalanish, ishlab chiqarish hajmi, eksport darajasi, ish o'rinlarining yaratilishi va hududiy iqtisodiy o'sishdagi hissa kabi ko'rsatkichlar muntazam tahlil qilinishi lozim. Mazkur tahlillar asosida rivojlanish strategiyasiga tuzatishlar kiritish, muammolarni aniqlab, ularga tezkor javob berish imkoniyati vujudga keladi.

Shuningdek, marketing strategiyalarini takomillashtirish, ichki va tashqi bozorlarni chuqur tahlil qilish, agroklastlar mahsulotlarini brendlash va sertifikatlashtirish, ularni eksport talablariga moslashtirish orqali daromadlilikni oshirish mumkin. Ayniqsa, Buxoro viloyatining iqlimiy sharoitiga mos noyob meva-sabzavot navlarini yetishtirish va ularni ekologik toza mahsulot sifatida xorijiy bozorga chiqarish uchun strategik rejalashtirish zarur. Bu borada e-commerce platformalar, raqamli savdo tizimlari va xalqaro yarmarkalarda ishtirok etish agroklastlarning bozor imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, agroklastlar tizimining hozirgi holati hali to'liq shakllanmagan bosqichda bo'lsa-da, mavjud resurslar, hududiy salohiyat va davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlar tizimning samarali ishlashi uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Asosiysi, agroklastlarni rivojlantirish faqat iqtisodiy masala emas, balki ijtimoiy barqarorlik, hududiy rivojlanish va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bevosita bog'liq strategik yo'nalishdir. Shu sababli, klasterlashtirish jarayonini har tomonlama chuqur tahlil qilish, ularning amaliy faoliyatida muvozanatni ta'minlash va davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali Buxoro viloyatida zamonaviy, raqobatbardosh va eksportbop agroklastlar tizimini shakllantirish mumkin bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxoro viloyatida agroklastlar tizimini rivojlantirish borasidagi olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuv nafaqat qishloq xo'jaligi tarmoqlarining samaradorligini oshiradi, balki mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, aholini barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlash, eksport salohiyatini kengaytirish va ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida mavjud klasterlarning faoliyati, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri, resurslardan foydalanish darajasi hamda kooperatsion aloqalar samaradorligi o'rganildi va bu asosda tizimli rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan muammolar ham aniqlab chiqildi. Shu boisdan, agroklastlarning iqtisodiy va institutsional samaradorligini yanada oshirish uchun, eng avvalo, mahalliy sharoitlarga mos innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan integratsiyani kuchaytirish, ta'minot va realizatsiya zanjirlarining raqamlashtirilgan boshqaruvini yo'lga qo'yish lozim.

Bundan tashqari, agroklastlarda faoliyat yurituvchi kichik va o'rta biznes subyektlariga nisbatan soliq va kredit siyosatini yanada moslashuvchan shakllantirish, suv resurslaridan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlik mezonlarini kuchaytirish orqali ham tizimning barqarorligini ta'minlash mumkin. Hududiy darajadagi boshqaruv organlari klasterlar faoliyatini muvofiqlashtirishda faollikni oshirib, ularni rivojlantirish strategiyalarini aniq indikatorlar asosida belgilashi, monitoring va baholash tizimini shakllantirishi zarur. Buxoro viloyatining agroiqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanish uchun ushbu takliflar asosida klasterlashuvning ilg'or modelini yaratish, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish va doimiy tahlil asosida takomillashtirib borish soha taraqqiyotining muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. N. Ibragimov, S. Shodmonov. Klaster tizimi: nazariya va amaliyot. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 216 b.
2. A.G. Yusupov. Qishloq xo'jaligida klaster tizimining rivojlanish yo'nalishlari. – T.: Fan, 2021. – 184 b.
3. V.U. Abdullayev. Mintaqaviy iqtisodiyot. – T.: Iqtisodiyot, 2018. – 320 b.
4. M. Porter. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
5. T. Steiner. Clusters and Regional Development: Critical Reflections and Explorations. – London: Routledge, 2006. – 288 p.
6. OECD. Innovation and Modernising the Rural Economy. – Paris: OECD Publishing, 2009. – 192 p.
7. FAO. Agricultural Clusters: Practical Guide. – Rome: FAO Publishing, 2020. – 146 p.



8. E. Bergman, E. Feser. Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications. – West Virginia University, 2001. – 96 p.
9. <https://www.agro.uz/svodnaya-spravka-po-buharskoy-oblasti/>
10. Samatovich, Ruziyev Sobirjon; „Importance of Marketing in Tourism and Hotel Industry,"International Journal of Business, Technology and Organizational Behavior (IJTOB)",2,1,79-84,2021,Garuda Prestasi Nusantara Consulting Jl. Anggaran No. 50 Kelurahan/Kecamatan ...
11. Ruziev, Sobirjon Samatovich; „The Importance of Marketing Research in Increasing Revenue in Tourism and Hospitality Business,European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) ISSN: 2795-8612,2,6,68-72,2022,Innovatus Publishing Co. All rights reserved. © 2022
12. Ruziev, Sobirjon Samatovich; „Analysis of the marketing environment and communication in tourism business,ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal,11,5,370-375,2021,South Asian Academic Research Journals
13. Ruziev, Sobirjon Samatovich; „The Importance of Management Strategies in Tourism Enterprises,American Journal of Social and Humanitarian Research,3,11,202-206,2022,
14. Samatovich, Ruziev Sobirjon; Kudratovna, Fayzieva Sayyora; Atoevna, Toirova Sarvinoz; „Formation of management mechanism competitiveness of restaurant enterprises,American Journal of Economics and Business Management,4,3,72-83,2021,
15. Saribayevich , X. F., Sariyevich, X. X., Davlatov, S., Turobova, H., & Ruziyev, S. (2024). Analysis of Factors Affecting CO2 Emissions: In the Case of Uzbekistan. International Journal of Energy Economics and Policy, 14(4), 207–215. <https://doi.org/10.32479/ijee.1619>; „Saribayevich , X. F., Sariyevich, X. X., Davlatov, S., Turobova, H., & Ruziyev, S. (2024). Analysis of Factors Affecting CO2 Emissions: In the Case of Uzbekistan. International Journal of Energy Economics and Policy, 14(4), 207–215. <https://doi.org/10.32479/ijee.1619>,"Saribayevich , X. F., Sariyevich, X. X., Davlatov, S., Turobova, H., & Ruziyev, S. (2024). Analysis of Factors Affecting CO2 Emissions: In the Case of Uzbekistan. International Journal of Energy Economics and Policy, 14(4), 207–215. <https://doi.org/10.32479/ijee.1619>,"Saribayevich , X. F., Sariyevich, X. X., Davlatov, S., Turobova, H. ..."
16. Fayzieva, Sayyora; Ruziyev, Sobirjon; Baratova, Manzurahon; „STRATEGY FOR THE DEVELOPMENT OF GASTRONOMIC TOURISM IN UZBEKISTAN,Modern Science and Research,4,3,419-426,2025,



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>